

**“TASDIQLAYMAN”**

O‘zbekiston davlat  
san’at va madaniyat instituti rektori  
N.B. Sayfullayev



*Signature*

**Rejissyorlik: estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi  
ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limga qabul qilish imtihoni  
BAHOLASH MEZONI**

Talabgorning quyidagi amaliy ijrosi va nazariy bilimlari uchun umumiy maksimal 100 balgacha baholanadi. 67 va undan yuqori ball to‘plagan talabgor suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.

| <b>№</b> | <b>Amaliy ijro</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | <b>Maksimal ball</b> |
|----------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|
| 1.       | <p>Talabgorning ijodiy va tashkiliy ishlarga qobiliyatli hamda yuksak ijodkorlik, ijrochilik, tashkilotchilik, yo‘nalishidagi fikrlash qobiliyatiga, asarni tanlash va sahnalashtirilishida zaruriy jihatlarni bilish, tushunish, his qilish qobiliyatiga ega bo‘lish salohiyati)</p> <ul style="list-style-type: none"><li>• rejissyorlik tahlili; (bunda talabgor biron bir pyesani tahlili uchun 0-10 balgacha)</li><li>• rejissura bo‘yicha suhbat; (bunda talabgorning dunyoqarashi va ijodiy salohiyati, uchun 0-10 balgacha)</li><li>• mashqlar, vazifalar yuklash (bunda mantiqiy-obrazli fikrlash, ijodiy tasavvur, kuzatuvchanlik, xotiraviy mushohadasi uchun 0-10 balgacha)</li><li>• saviya darajasi; (bunda o‘qigan badiiy adabiyotlari, ko‘rgan spektakllari xaqida fikr yuritish darajasi uchun 0-10 balgacha)</li></ul> | 40                   |
| 2.       | <p>San’at va madaniyat haqida bilimi (Rassomchilik, musiqa, raqqoslik va plastika san’ati haqidagi tushunchasi (bunda to‘g‘ri javob uchun 0-20 balgacha)</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | 20                   |
| 3.       | <p>Talabgorning ijodiy salohiyati va sahnaviy tarovati (insoniy jozibadorligi, hislati, tabiati, yoshi, tashqi ko‘rinishi, yoqimtoyligi va ichki madaniyati, hayotiy tajribasi, tasavvurining rang-</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | 20                   |

|                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |            |
|----------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
|                | <p>barangligi, ta'sirchanligi, hayotiy voqea va hodisalarga munosabati va ularni sahnada aks ettira olish salohiyati)</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• masal (I.V.Krilov, S.Mixalkov, M.Xudoyqulov, A.Obidjon va h.k.); (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)</li> <li>• monolog (biron bir pyesadan qahramon monologi); (bunda, har bir ijro uchun 0-5 balgacha)</li> <li>• she'r; (bunda, har bir ijro uchun 0-2 balgacha)</li> <li>• hayvonot olami (hayvonot xulq-atvori) - kuzatishlar asosida etyud; (bunda, har bir ijro uchun 0-2 balgacha)</li> <li>• yakka etyud – (yakka o'zi bilan sahnada sodir bo'layotgan so'zsiz voqea ko'rinish). (bunda, har bir ijro uchun 0-2 balgacha)</li> <li>• estrada nomerlari (raqs, plastika, pantomima, parodiya (taqlid san'ati), sirk nomerlari). (bunda, har bir ijro uchun 0-4 balgacha)</li> </ul> |            |
| <b>Og'zaki</b> |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |            |
| 4.             | San'at va madaniyat sohasidagi izchil ijobiy o'zgarishlarga, badiiy va sohaga oid adabiyotlar haqidagi tushunchasiga, teatr va estrada san'ati bo'yicha asosiy savollarga to'g'ri og'zaki javob uchun (bunda, har bir savolga berilgan javob uchun 0-10 balgacha)                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   | 20         |
|                | <b>Jami</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | <b>100</b> |

### Qo'yilgan talablarga talabgorning javobini baholash mezonlari

| <b>Nº</b> | <b>Baholash mezonlari</b>                                                                                                                                                                 | <b>Ball</b> |
|-----------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| 1.        | Rejissyorlik tahlili (o'zi o'qigan pyesani talab darajasida tahlili-konflikt, syujet, voqealar tizimi kabi boshlang'ich tushunchalarni izohlashda quyidagicha baholanadi):                | 1-5         |
|           | Rejissura bo'yicha suhbat (dunyoqarashi va ijodiy salohiyati, shaxsning o'ziga xosligi, tashkilotchilik qobiliyati, ma'naviy-axloqiy xislatlari)                                          | 6-15        |
|           | Mashqlar, vazifalar yuklash ( mantiqiy-obrazli fikrlash, ijodiy tasavvur, kuzatuvchanlik va xotiraviy mushohadasini, shu bilan birga sahna madaniyati, estetik didi, muomala munosabati); | 16-20       |
|           | Saviya darajasi (bunda o'qigan badiiy adabiyotlari, ko'rgan spektakllari haqida fikr yuritish darajasi, umumlashtirish layoqati);                                                         | 21-30       |

|                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |       |
|----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
|                | Ijodiy tafakkuri, fikrlash qobiliyati, tasavvuri, fantaziyasi, adabiy-badiiy saviyasi, fikrlashda mantiqiylik va izchillik xususiyatlari, shuningdek kitobxonlik xususiyatiga ega bo'lishi.                                                                                                                                                                                                                                                                     | 31-40 |
| 2.             | Suhbat jarayonida abituriyentning bo'lajak kasbi xususida, rejissorlikning o'ziga xos tomonlari, estrada, bayram va tomosha haqida tushunchalari;                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | 1-5   |
|                | Mazkur sohaga bo'lgan abituriyentning individual qobiliyati;                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | 6-10  |
|                | Ijodiy salohiyati, dunyoqarashi, bilimi, badiiy va dramaturgiya asarlarini o'qiganligi, rejissuraga oid nazariy va amaliy bilimlari, sahnaviy madaniyati, estetik didi, muomala munosabati, fikrlash doirasining kengligi, mustaqil fikrlashi, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;                                                                                                                          | 11-15 |
|                | Tashkilotchilik va boshqaruvchilik qobiliyati, abituriyentning muomala madaniyati, tasavvur va fantaziyasi, sohaga qiziqishi, shaxsning o'ziga xosligi, ma'naviy-axloqiy xislatlari, rejissorlik etyudi tekshiriladi.                                                                                                                                                                                                                                           | 16-20 |
| 3.             | Masal ijrosi, monolog ijrosi (biron bir pyesa qahramonining monologi);                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | 1-10  |
|                | Sher, hayvonot olamiga kuzatuv (hayvonot xulq atvori), yakka etyud (abituriyentning yakka o'zi bilan sodir bo'layotgan so'zsiz voqeali sahna ko'rinishi) ijrosi;                                                                                                                                                                                                                                                                                                | 11-16 |
|                | Estrada nomerlari (raqs, plastika, pantomima, parodiya (taqlid san'ati), sirk nomerlari). Imtihonda ijro qilinayotgan asarni tubdan tushinish, eshitayotganlarni qiziqtirish, o'ziga jalb qilish, tasavvur qila olishi, kuzatuvchanligi, ta'sirchanlik va ehtirosi, obrazli fikr yuritish, eslab qolish qobiliyati tekshiriladi. Bundan tashqari abituriyent pedagoglar tomonidan tempo-ritm, diqqat, reaksiya, xotira va improvizatsiyalarni tekshirish uchun. | 16-20 |
| <b>Og'zaki</b> |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |       |
| 4.             | Talabgorning teatr va kino san'ati haqida nazariy bilimi (kino, spektakllar, teatr va kino aktyorlari va rejissyorlari);                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | 1-10  |
|                | Talabgorning badiiy adabiyotlarni o'qiganligi (hikoya, roman, qissa, pyesa).                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | 11-20 |

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi



S.Turatov